



INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMASIDAGI MORFOLOGIK VA LEKSIKOLOGIK TRANSFORMATSIYALAR TAHLILI (JONATAN SVIFT ASARI MISOLIDA)

Abduraimova Zeboxon Xayrullojeva¹

Juraali Kamoljonovich Solijonov²

¹Termiz davlat universiteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo`nalishi talabasi

Tel:+998972606575

E-mail: abduraimovazebo0@gmail.com

²Termiz, O'zbekiston

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

E-mail: stuard_redman@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6504140>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 18-aprel 2022

Ma'qullandi: 23- aprel 2022

Chop etildi: 27- aprel 2022

KALIT SO'ZLAR

grammatika, morfologiya, leksikologiya, adaptatsiya, ingliz tili, o'zbek tili

ANNOTATSIYA

Mazkur maqola jahon adabiyotining eng buyuk namoyondalaridan bo'lgan Jonatan Sviftning "Gulliverning sayohatlari" (Gulliver's travels) asaridagi morfologik va leksikologik transformatsiyalar tahlilini ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishdagi muammolarini tahlil qiladi. Asarda tahlil uchun olingan gaplarning morfologik va leksikologik o'zgarishlari ko'rib chiqiladi

Mazkur maqolada keltirilgan "Gulliverning sayohatlari" asari muallifi Jonatan Svift 1667-yil 30-noyabrda Irlandiyaning Dublin shahrida tug'ilgan. Ilk asarlari "Vilyam Senkroftga qasida", "Kongrivga qasida", "Kitoblar jangi". Pamfletining davomi "Bochka haqida ertak" hajviyasida katolik, anglikan va puritan cherkovlari orasidagi kurash parodiya ruhida tasvirlangan[1]. Svift ijodidagi eng muhim va yagona roman "Gulliverning sayohatlari". Asarning to'liq nomi „Lemyuel Gulliver-ning jahondagi bir necha olis mamlakatlarga avvalo jarroh, keyinchalik esa bir necha kemalar kapitani sifatida qilgan sayohatlari“. Roman 1726-1727 yillarda, Londonda birinchi marta nashr qilingan va shu vaqtdan boshlab mashhurligi uni jahon adabiyotining

klassikasiga aylantirdi. Muallif romanni urf-odatlar, siyosiy uslublar, shuningdek, inson tabiatiga qarshi kuchli tanqidlarni qo'shib, "sayohat hikoyalari" ni masxara qilish sifatida yaratdi. Sviftning romani menipeya an'analarida yozilgan bo'lib, bunda syujetning mutlaq erkinligi "g'oyaviy va falsafiy maqsad - falsafiy g'oyani qo'zg'atish va sinab ko'rish uchun alohida vaziyatlarni yaratish - so'z, haqiqat, donishmand obrazida mujassam bo'lgan, ushbu haqiqatni izlovchi" Menippeyning mazmuni ma'lum bir qahramonning sarguzashtlari emas, balki g'oyaning o'zi. Savolning bu shakllanishi ham Gulliverning o'zi, ham butun asar obrazining chuqur ichki yaxlitligini ko'rish imkonini beradi [2]. Svift to'rt qismli tuzilishga ega bo'lgan



romanni yozish uchun taxminan 6 yil vaqt sarfladi:

- I qism: Liliputga sayohat.
- II qism: Brobdingnagga sayohat.
- III qism: Laputa, Balnibarbi, Luggnagg, Glubbudrib va Yaponiyaga sayohat.
- IV qism: Houhnhms mamlakatiga sayohat.

Ushbu qismlarning har birida 18-asrdagi Yevropaning kundalik hayotini aks ettiruvchi amaliyotlar, foydalanish usullari, e'tiqodlari, ziddiyatlari va yoki kasblar tasvirlangan.

ADABIYOTLARNI O'RGANISH VA TADQIQOT METADOLOGIYASI

Mazkur maqola uchun tadqiqot davomida tarjima qiyosiy adabiyot, qarama qarshi tavsifli tarjima va lingvistik atamalarning izohli tahlili, adabiyotning stilistik tahlili ko'rib, o'rganilib chiqildi. Ushbu tadqiqot uchun, "Tarjimashunoslik terminlarining ko'p tilli lug'at-ma'lumotnomasi" qo'llanmasidan foydalanildi [3]. Grammatika (grek. grammatika "harf o'qish va yozish san'ati", "harf") atamasi tilning morfologik va sintaktik qurilishini o'rganadigan tilshunoslikning bo'limi ma'nolarida qo'llaniladi. Demak, grammatika tilshunoslikning morfologiya va sintaksis bo'limlarini o'z ichiga oladi. Morfologiya (grek. morhfos "shakl", logos "ta'limot" so'zlaridan olingan bo'lib) so'z shakllari haqidagi ta'limotdir [4]. Leksikologiya (leksika va logiya) -tilshunoslikning til lug'at tarkibi, ya'ni muayyan bir tilning leksikasini o'rganuvchi bo'limi. Leksikologiya har bir so'zni yolg'iz holda emas, balki boshqa so'zlar bilan bog'liq

holda o'rganadi [5]. "Adaptatsiya" so'zi lotin tilidan olingan bo'lib adaptatio – "moslashuv" degan ma'noni anglatadi. Bu termin turli sohalar doirasida turli vazifada qo'llaniladi. Hozirgi zamonaviy tarjima nazariyasida "adaptatsiya" tushunchasi ikki xil ma'noda ifodalanadi: 1) asarni qisqartirib, yengillashtirib, o'zgartirib, milliylashtirib tarjima qilish; 2) ayrim so'z, tushuncha va terminlarni tarjima qilish jarayonida o'quvchiga moslashtirish Ingliz tili (inglizcha:English)- hind-yevropa oilasining german guruhiga kiruvchi til. Ingliz xalqining tili [6]. O'zbek tili —Oltay tillari oilasining turkiy Atillarturkumiga kiruvchi tildir. Ushbu til O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq davlat tili hisoblanadi [7].

NATIJA

Ushbu asarning 45 ta gaplari tahlil qilindi, bundan 33 tasi morfologik, qolgan 12 tasi leksikologik tahlil jarayonida ko'rib chiqildi. Ulardan 53 tasi ot, 44 tasi fe'l, 23 tasi sifat, qolgan 17 tasi ravish va olmoshdan iborat. Asarni tarjima qilish jarayonidaunchalik ko'p muammolarga duch kelingani yo'q. Muammoga duch kelgan qism shuki, sifat bog'lanib kelgan ot ba'zan gapda tushib qolgan, natijada sifat otlashib, egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalari bilan o'zgargan va ot bajargan sintaktik vazifalarda kelgan, ya'ni fan tili bilan tahlil qiladigan bo'lsak sifatlar otlashib ketgan [9].

Morfologik tahlil: Leydendan qaytgach, saxovatli ustozim mister Betsning yordamida kapitan Eybregem Pennel qo'mondonlik qilayotgan "Qaldirg'och" kemasiga xirurg bo'lib ishga kirdim.

1-JADVAL

Leksemalar	Morfologik xususiyati
------------	-----------------------



1	Leydendan	Ot+sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha
2	qaytgach	Fe'l+lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha=ravishdosh
3	saxovatli	Sifat
4	ustozim	Ot+lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha
5	Mister Betsning	Ot+sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha
6	yordamida	Ot+sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha
7	Kapitan	Ot
8	Eybregem Pennel	Ot
9	Qo'mondonlik	Ot+shakl yasovchi qo'shimcha
10	qilayotgan	Fe'l+lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha=sifatdosh
11	Qaldirg'och	Ot
12	kemasiga	Ot+shakl yasovchi qo'shimcha
13	xirurg	Ot
14	bo'lib	Fe'l+lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha
15	Ishga	Ot+sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha
16	kirdim	Fe'l+sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha

Morfologik tahlil: O'zim esa suvga dumalab tushgach, shamol va oqim yo'nalishida boshim oqqan tomonga qarab suzaverdim.

2-JADVAL

	Leksemalar	Morfologik xususiyati
1	O'zim	Olmosh
2	esa	Bog'lovchi
3	suvga	Ot+sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha
4	dumalab	Fe'l+lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha=ravishdosh
5	tushgach	Fe'l+lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha=ravishdosh
6	shamol	Ot
7	va	Teng bog'lovchi
8	oqim	Ot
9	Yo'nalishida	Fe'l+lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha=harakat nomi
10	Boshim	Ot+sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha
11	oqqan	Fe'l+lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha=sifatdosh



12	tomonga	Ot+sintaktik shakl yasovchi qo'shimcha
13	qarab	Fe'l+lug'aviy shakl yasovchi qo'shimcha=ravishdosh
14	suzaverdim	Fe'l

Leksikologik tahlil: Mening hisobimga ko'ra uyqum to'qqiz soatdan oz davom etmagan bo'lsa kerak, chunki uyg'onganimga hamma yoq yop-yorug' edi.

Mening – 1 ma'noli so'z, noaniq atash ma'nosida

Hisobimga – 1. Shakldosh so'z bo'lib, bunda sanog'im ma'nosida. 2. Shunisi hisob belgilandi ma'nosida

Ko'ra – yordamchi so'z ya'ni atash ma'nosini yo'qotgan.

Uyqum, to'qqiz, soat,davom etmagan kerak, uyg'onganimga, hamma, yop-yorug' edi – bu so'zlarning barchasi bir ma'noli so'zlar.

Oz – shakldosh so'z, bu gapda “kam” ma'nosida, boshqa ma'nosida “ozmoq”.

Bo'lsa – shakldosh so'z, bunda “bo'lmoq” fe'li ma'nosida, shakldoshi “bo'linmoq”.

Chunki – atash ma'nosiga ega emas.

Yoq – shakldosh so'z: bu yerda “tomon”, “joy” ma'nosida. Shakldoshi: chiroqni yoqmoq

MUHOKAMA

Ma'lumki, har qanday badiiy asar, u qaysi janrda bo'lishidan qat'i nazar, tahlilga, muhokamaga tortilmas ekan, matnning mohiyatiga kirilmas ekan, u kitobxonlarning ma'naviyatiga hech narsa bermaydi. Hozirgi zamon jahon adabiyotshunosligida badiiy asarlarni ham morfologik va leksikologik tahlil qilishga juda katta e'tibor qaratilmoqda. Bundan tashqari matn tahlili doirasida tanlangan asarning nominatsiyasi ham alohida o'rin tutadi, chunki har qanday asar nominatsiyasi, birinchidan asarning janr va

stiliga xos xususiyatlarda sezilarli iz qoldiradi; ikkinchidan, til vositalarining aniq yig'indisi bilan farq qiladi. So'z turkumlariga ayrim tilshunoslar so'zlarning grammatik tasnifi deb qaraydilar va ularda grammatik kategoriyalarni ko'radilar. Boshqa guruh tilshunoslari esa ularni so'zlarning leksik grammatik tasnifi deb ataydilar. Bizningcha, ikkinchi fikr haqiqatga yaqin, chunki grammatik ma'no so'z asosidan tashqarida ifodalanadi, so'z negizi esa leksik ma'no anglatadi. Birinchi fikr tarafdorlarining nuqtai nazarlariga munosabat bildirilganda, so'z turkumlariga grammatik kategoriyalar deb qaralsa, ulardagi leksik mavhum ma'no (predmetlik, harakat va boshqa ma'nolar) mavjud emas degan mantiqiy mulohaza vujudga keladi. So'z turkumlarida leksik ma'no mavjud bo'lar ekan, lug'at tarkibidagi so'zlarning barchasi grammatik kategoriyalar hisoblanmaydi. Asar keltirilgan deyarli gapda barcha bo'laklar o'z ma'nosida o'rnida qo'llangan. Bog'lovchidan ham so'z turkumlaridan ham to'g'ri foydalanilgan (ot, fe'l, ravish, sifatdosh, harakat nomi, bog'lovchilar, o'z o'rnida) [11].

XULOSA

Mazku maqolada keltirilgan asarda Angliya monarxlari, ularning vazirlari va saroy a'zolarining dunyo hukmronligi va butun Evropada jamoat hayotining adolatsizligi haqidagi da'volarni masxara qildi. Jonatan Svift hayoliy shaklda o'sha davrdagi Angliyadagi nafratli odob-axloq va buyruqlarni tasvirlab berdi. Yozuvchi o'z



kitobida qarshi kurashgan odamlar va voqealar uzoq vaqtdan beri yo'q bo'lib ketgan. Ammo asar yashaydi va hali ham o'quvchilar qalbida jaranglaydi. Romanda ingliz shifokorining taqdiri shu paytgacha noma'lum mamlakatlarga - Lilliputlar yurtiga olib kelgan sayohati haqida. Lilliputda juda kichik odamlar yashaydi, ular bilan solishtirganda Lemuel Gulliver haqiqiy gigantdir. Va bu, mening fikrimcha, nafaqat o'sish, balki ichki fazilatlar, istaklar va intilishlarga ham tegishli. Masalan, imperiyada nizolar avj olgan, chunki ikki etakchi siyosiy partiyalar qanday balandlikda to'piq kiyish kerakligi

to'g'risida kelisha olmaydilar. Qo'shni Blefusku shtati bilan urushlarning sababi shunchaki kulgili emas: har bir tomon tuxumni qaysi chetidan sindirish to'g'riroqligini - to'mtoq yoki o'tkirdan isbotlashga harakat qilmoqda. Gulliver mittilarga ajoyib kontrastni taqdim etadi. U o'zining olijanoblighi, mehribonligi, bilimi, aql-zakovati va rahmdilligi bilan hurmat va hayratni uyg'otadi. Menimcha, Gulliver va Lilliputlar qarama-qarshiligini J. Svift o'z qahramonlarining xizmatlari va kamchiliklarini ta'kidlash, har bir inson unga intilishi kerak bo'lgan haqiqiy qadriyatlarni ko'rsatish uchun ishlatadi [2].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-nasri-onlayn-antologiyasi/jonatan-svift-1667-1745-irlandiya>
2. <https://monster-evo.ru/uz/vypuskniku/literaturnoe-chtenie-konspekt-uroka-puteshestviya-v-nekotorye-otdalennye/>
3. Qodirovna, A. Z., & Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING, GARRI POTTER VA AFSUNGARLAR TOSHI"ROMANIDAGI SEHRGARLAR OBRAZINI INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHNING LINGVO-PERSPEKTIV TAHLILI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(3), 176-180. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-3-176-180>
4. Mansur Masharipov "Ona tilidan 2-qism ma'ruzalar to'plami" kitobidagi 96-bet
5. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Leksikologiya>
6. YOSH TARJIMASHUNOS, V "Qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik" va "Sinxron tarjima" mutaxassisliklari magistrantlari hamda "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" yo'nalishi talabalarining yillik an'anaviy ilmiy-amaliy anjumani materiallari" qo'llanmasidagi 13-bet
7. https://uz.wikipedia.org/wiki/Ingliz_tili
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbek_tili
9. Nargiza erkaboyeva "O'zbek tilidan ma'ruzalar to'plami" kitobidagi 209-bet.
10. <https://uz.m.wiktionary.org/wiki/dengiz>
11. R.I.Xalmurodov "Ilmiy axborotnoma " asaridagi 59-bet va 74-bet
12. Kamoljonovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 334-343. <https://doi.org/10.24412/2181-2454-2022-1-334-343>
13. Jo'ramurodova, Z., & Solijonov, J. (2022, April). JK ROULINGNING "BIDL QISSANAVIS ERTAKLARI"("THE TALES OF BEEDLE THE BARD") ASARIDAGI ANTROPONIMLARNING



ЎЗБЕК ТИЛИДАН ИНГЛИЗ ТИЛИГА ТАРЖИМА ҚИЛИШДАГИ МУАММОЛАРИ. In
МЕЖДУНАРОДНАЯ НАУЧНАЯ КОНФЕРЕНЦИЯ:" СОВРЕМЕННЫЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ
ПАРАДИГМЫ: ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ТРАДИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ II" (Vol. 2, No. 18.03, pp.
554-560). <https://doi.org/10.47100/nuu.v2i18.03.115>